



6. O‘rmonjonov Azizbek Muhammadjon o‘g‘li. (2025). INKLYUZIV TA’LIMNING MUSIQA TA’LIMDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI. *TA’LIM VA TARAQQIYOT*, 4(3), 607-613.
7. Botirova Sevara Mamurovna, Tursunov Ramziddin Abdixalil o‘g‘li. (2025). MA’NAVIY BARKAMOL YOSHLAR YANGI O‘ZBEKISTON BUNYODKORI. *MA’NAVIY BARKAMOL YOSHLAR YANGI O‘ZBEKISTON BUNYODKORI*, 1(1), 98-102.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA JOZIBALI VA SIFATLI DARS O‘TISHNING YANGI TUTUM VA USULLARI

B.X. Daniyarov,

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti professori, filologiya fanlari doktori (DSc)
e-mail: bxdaniyarov@gmail.com тел.: (97)-411-54-67

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar davrida yangi fanlarni o‘qitishning yangi prinsip va usullari haqida so‘z yuritiladi. Jumladan, akademik yozuv fanini sifatli va samarali o‘qitish, ilmiy va ilmiy-publitsistik matnlarni og‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ri bayon qilish masalalari zamonaviy kompleks metodika asosida tahlil qilinib, yechimi bo‘yicha aniq tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Mantiqiy izchil, ixcham, qiziqarli ta’sirchan; aniq, sodda va ravon, tushunarli va oson; ilmiy uslub - bor asos, dalil isbot – bari rost; angla, anglat – aniq maqsad. yangi fanlarni o‘qitishning yangi prinsip va usullari, tutum – sof o‘zbekcha so‘z, prinsip atamasining o‘zbekchasi - tutum, tamoyil – tendensiya so‘zining o‘zbekchasi. Qofiyali qoidalar.

NEW PRINCIPLES AND METHODS OF TEACHING DISCIPLINES IN THE DIGITAL AGE

B.Kh. Daniyarov,

Doctor of Philological Sciences, Professor at the Tashkent University of Economics and Pedagogics
e-mail: bxdaniyarov@gmail.com тел.: (97)-411-54-67

Annotation. This article discusses new principles and methods of teaching new disciplines in the digital technology era. In particular, it analyzes the issues of high-quality and effective teaching of academic writing, the correct presentation of scientific and popular scientific texts in oral and written speech based on a modern comprehensive methodology, and provides specific recommendations for their solution.

Keywords: Logically consistent, concise, interesting, impactful; precise, simple and fluent, understandable and easy; scientific style — justification, evidence — all true; understand, explain — clear goal. new principles and methods of teaching new disciplines, “tutum” — a purely Uzbek word, the Uzbek equivalent of the term “principle” is “tutum,” “tamoyil” — the Uzbek equivalent of the word “tendency.” Rhymed rules.

НОВЫЕ ПРИНЦИПЫ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ДИСЦИПЛИН В ЭПОХУ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Б.Х. Данияров,

доктор филологических наук, профессор Ташкентского университета экономики и педагогики
e-mail: bxdaniyarov@gmail.com тел.: (97)-411-54-67

Аннотация. В данной статье рассматриваются новые принципы и методы преподавания новых дисциплин в эпоху цифровых технологий. В частности, анализируются вопросы качественного и эффективного преподавания академического письма, правильного изложения научных и научно-публицистических текстов в устной и письменной речи на основе современной комплексной методики, а также даются конкретные рекомендации по их решению.

Ключевые слова: логически последовательный, краткий, интересный и выразительный; точный, простой и плавный, понятный и лёгкий; научный стиль — есть основа, доказательство, факты, всё истинно; осмысли и разъясни — сформулируй чёткую цель. Новые принципы и методы



преподавания новых дисциплин, тутум — исконно узбекское слово, узбекский вариант термина принцип — тутум, тамойил — узбекский эквивалент слова тенденция. Рифмованные правила.

Raqamli texnologiyalarining mislsiz darajada shiddat bilan rivojlanishi zamonaviy dars o’tishning innovatsion tutum va usullarini taqozo etmoqda. Xususan, axborot texnologiyalari taraqqiyoti davrida o’quv adabiyotlarining va darslarning zamonaviy ta’limga hamnafas va hamqadam bo’lishini, o’quvchi, talaba-yoshlar uchun jozibadorligini ta’minlash juda muhim.

Shu maqsadda ushbu maqola muallifi – kamina tomonidan quyidagi “Qofiyali qoidalar” - dars o’tishning innovatsion tutum va usullari ishlab chiqildi, masalan :

Oddiy sodda va ravon/ Tushunarli va oson.

Mantiqiy izchil ixcham/ Qiziqarli ta’sirchan [4: 10] .

Zero, innovatsion texnologiyalarni o’qituvchilarga va, umuman, tinglovchilarga, tez yetkazib, pedagogic amaliyotga samarali joriy etish ko’p jihatdan domlani bu innovatsiyalarni qanday usullar bilan tushuntirishi, ifoda etishi, bayon qilishiga ham bog’liqdir. Shuning uchun o’qituvchilarga, tinglovchilarga, innovatsion texnologiyalarni tanishtirishda ular uchun tushunarsiz bo’lgan murakkab, chigal, noaniq ifoda va ta’riflardan qochish lozim [3: 95].

Misol uchun, A.Avloniy nomidagi pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish markaziy institut tinglovchilari ishtirokida 2011-2014 yillarda o’tkazilgan tajribadan ma’lim bo’ladiki, “pedagogic texnologiya” tushunchasiga berilgan quyidagicha ta’rif pedagoglarning uni tez tushunib olishlari uchun murakkablik qiladi:

“Педагогик технология – ўқув жараёнини технологиялаштиришни яхлит аниқловчи тизимли категория. Технологияларнинг барча бошқа тушунчаларини белгилаш учун синоним сифатида таълим технологияси, ўқитиш технологияси кабиларни ишлатиш мумкин.

Ўқитиш технологияси, биринчидан, педагогик технологияларнинг жараёни – ҳаракат аспектини англатади. Бу таълим жараёнининг ўзгарувчан шароитларда, ажратилган вақт давомида истиқболлаштирилган натижаларига кафолатли эришишга ва аниқ таълим-тарбия жараёнларини амалга оширишни инструментал таъминловчи усул ва воситаларнинг тартибли бирлигини ўзида мужассамлаштирилган таълим моделини ишлаб чиқиш ва амалга оширишнинг технологик жараёнидир;

– иккинчидан, педагогик технологияларнинг жараёни – баёнли аспектини ифодалайди. Бу мақсадни амалга ошириш ва истиқболда белгиланган натижаларга эришиш бўйича педагогик ҳамда ўқув фаолияти лойиҳасини бажаришнинг баёнидир (технологик харита).” (Педагогик технологиялар. Ўқув қўлланма. Тошкент: “Иқтисод-Молия”, 2009, 75-бет).

Endi sinonimlarning ilmiy ta’rifiga misol keltiramiz:

“Tadqiqot natijalari asosida o’zbek tili leksik sinonimlarini asosiy denotativ ma’nosi bo’yicha mos, lekin konnotativ ma’no komponentlari xususiyatlari va qo’llanishi, funksional imkoniyatlarining o’ziga xosligi bilan farqlanadigan sinonimlar deb tavsiflash maqsadga muvofiq. Sinonimlar leksik va kontekst birikuv hamda derivatsiyaviy xususiyatlari va imkoniyatlari bilan ham farqlanadi” [1: 175].

Ma’nodosh so’zlarning ushbu ta’rifi ilmiy asoslangan, juda to’g’ri yozilgan bo’lsada, sinonimlarga oid bu ilmiy xulosa o’zbek tilshunosligi sohasida qalam tebrayotgan olimlar, soha mutaxassislari uchun mo’ljallangan, tilshunos olimlar uchun sinonimlarning ushbu ta’rifi ochiq-oydin tushunarlidir. Nofilologik yo’nalishlarni, xususan kompyuter muhandisligi va axborot texnologiyalari kabi zamonaviy soha mutaxassisliklarini tanlagan talabalar uchun ushbu sinonimlar tushunchasi juda murakkab bo’lib, ular buni qabul qila olmaydilar. .

Zamonaviy texnologiyalarini egallab yetuk mutaxassis bo’lishni niyat qilgan ilmu toliblarga domlari sinonimlar ta’rifini sodda va tushunarli, ular uchun jozibali tarzda yetkazmog’i lozim, jumladan quyidagicha:

“Sinonimlar bu – ma’nodosh so’zlar”, masalan, yuz, bet, chehra, aft, turq, bashara kabi. Sinonimlar asosiy ma’nosiga ko’ra bir xil so’zlar bo’lib, ma’no nozikliklari bilan farqlanadi, masalan, ochiq chehra deb aytish mumkin, lekin ochiq bashara deb aytib bo’lmaydi; oy yuzli zebo, deb aytish mumkin, lekin oy turqli zebo deb aytib bo’lmaydi”, yoki “sinonimlar ma’nosi juda yaqin bo’lgan so’zlar”, deb oddiy va lo’nda qilib talabalarga tushuntirib berish maqsadga muvofiq [1: 187].

Zamonaviy dars o’tishning tutum (prinsip) va usullarini to’g’ri qo’llab, o’tilayotgan har mavzuni oddiy, sodda, aniq, lo’nda usulda bayon etish maqsadga muvofiq. Jumladan, ushbu maqola muallifi qalamiga mansub quyidagi qofiyali qoidaga rioya qilgan holda:



Jozibali bayon qil/ Aniq, tiniq ayon qil.

Bayon etilgan fikr-mulohazalarni isbotlovchi faktlar, dalillar misollar yetarli va shubhaga o‘rin qoldirmaydigan darajada shaffof bo‘lmog‘i lozim. Tegishli mavzular talabalarga yaxshi tanish va manzur bo‘lgan hayotiy nutqiy vaziyatlar orqali tushuntirilsa, tinglovchilarning qiziqishi yanada ortadi.

Masalan, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, “Akademik yozuv” darslarida “Matn hosil qiluvchi vositalar”, “Nutq uslublarning leksik-grammatik xususiyatlari”, “So‘z ma’nosi va ma’no noziklari” kabi mavzularni o‘rganishda o‘zbek tili so‘z boyligi ulkan bo‘lib, har bir so‘zni o‘z o‘rnida qo‘llash muhimligini talabalar orasida mashhur bo‘lgan qo‘shiqlardan misollar keltirish orqali, talabalarga tushuntirilsa, o‘zgacha samarali ijobiy natijaga erishiladi, masalan, yoshlar orasida mashhur bo‘lgan “Baxtingni top” qo‘shig‘i misolida:

Oshiq yigit sevgan yorining qo‘lida uning boshqa yigitga turmushga chiqayotganligi bo‘yicha to‘yga taklifnomani ko‘rib qoladi va qattiq iztirobga tushib qoladi, lekin qizga “ket” deya olmay, “bor, bor” deb nido qiladi: talabalarga qo‘shiqchi Sardor Toirov ijrosida ushbu kuy (“Baxtingni top”) internetga ulangan kompyuter (smartfon) qurilmalari orqali oflayn taqdim etiladi:

Yashirasani nigohlaring, /Go‘zal ko‘zi qaroqlaring,/

Menga so‘nggi so‘z aytolmay/ Qaltiraydi dudoqlaring...

...O‘zi sezib turibman,/ Arang kulib turibman/

Qo‘lingdagi qog‘ozni/ Netay ko‘rib turibman....

...Axir bu taklifnoma/ Baxtimdan qayirmoqda./

Shu bir parchagina qog‘oz/ Sevgimdan ayirmoqda –a –a-a-a!

Bor, bor, bo-o-o-r, baxtingni top/ Qaramagin ortinga/

Bor, bor, bo-o-o-r, baxtingni top/ Quloq solma qalbingga-a-a-a!

Kuy tugagach, qo‘shiq matni qiziqarli tarzda tahlil qilinadi. Bu nutqiy vaziyatda bor so‘zini “ket”, “jo‘na”, “yo‘qol” kabi so‘zlar bilan almashtirib bo‘lmashligi talabalarga o‘qitishning yangi jamlanma (kompleks) usullari bilan yaqqol jozibali anglatiladi, jumladan, qiziqarli, suhbat, bahs-munozaraga chorlovchi, faollikka undovchi savollar beriladi: qo‘shiq qahramoni oshiq yigit nima uchun sevgilisiga “ket”, “jo‘na” yoki “yo‘qol” deb aytolmaydi? Hayotda shunday ruhiy holatda ushbu qo‘pol so‘zlarga bundan-da qo‘polroq so‘zlarni qo‘shib, yaxshi ko‘rgan qizini haqorat qilib, shovqin solib, kamiga do‘pposlab quvib yuborgan ma’naviy qashhoq, madaniyatsiz *kimsalar* (e’tibor qiling: insonlar, kishilar emas) yo‘qmi?..

Nutqiy vaziyatni haqqoniy aks etishda, matn tuzishda, inson ruhiy kechinmalarini, uning ichki hissiyotlari, kechirgan tajribalari va emotsional holatlarini so‘zlar vositasida jonli aniq va ta’sirli tasvirlashda so‘zlarni, xususan, ma’nodosh so‘zlarni to‘g‘ri tanlash muhim ahamiyatga ega ekanligi ilmi toliblarga chiroyli va maroqli tarzda tushuntiriladi.

Xuddi shunday: *jozibali, go‘zal va sodda, bir umrga qolgusi yodda* – usulida o‘zbek adabiy tilimiz haqida ma’lumot berish, jumladan, hassos o‘zbek shoiri Lutfiyning mashhur “Xoh inon, xoh inonma radifli” g‘azaliga zamonaviy kuy bastalab, el olqishiga sazovor bo‘lgan “Nola” estrada guruhi ijrosida tinglab tahlil qilish ham maqsadga muvofiq.

“Savol berib qiziqtir/ Javob izlab miriqsin” qoidasiga rioya qilgan holda domla *Prinsip* so‘zining o‘zbekchasi kim aytadi?- deb talabalarga muroaat qiladi. Deyarli hamma talabalar bir ovozdan “*tamoyil*”, deyishadi. “*Noto‘g‘ri!*” – deb, domla talabalarga prinsip so‘zining o‘zbekchasi haqida sodda va lo‘nda, dalil va isbotlar bilan maroqli tarzda quyidagi ma’lumot beradi:

Jamiyat qanchalik rivojlanib borsa, uning tilga ongli ravishda munosabati ham shunchalik kuchayib boradi. Ammo, aytib o‘tish joizki, ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda ayrim hollarda so‘z va atamalar har doim ham to‘g‘ri qo‘llanmaydi. Masalan, *prinsip* so‘zi o‘rnida *tamoyil* so‘zining qo‘llanishini u qadar asosli deb bo‘lmaydi. *Prinsip* atamasining o‘zbekchasi *tamoyil* emas. *Tamoyil* o‘zbek tilida *tendensiya* so‘zining ma’nosini anglatadi.

Prinsip so‘zi o‘rnida *tamoyil* so‘zining qo‘llanishini asosli deb bo‘lmaydi. *Prinsip* atamasining o‘zbekchasi *tamoyil* emas. *Tamoyil* arab tilidan o‘zbek tiliga bir necha asr avval o‘zlashgan bo‘lib, rus tilidan o‘zbek tiliga o‘tgan asrda o‘zlashgan *tendensiya* so‘zining ma’nosini anglatib kelgan.

Hatto sobiq sovet tuzumida, masalan, 1959 yilda Moskva shahrida nashr etilgan (Bosh muharrir professor A.K.Borovkov) hamda 1988 yilda Toshkentda chop etilgan “O‘zbekcha – ruscha lug‘at”larda (qisqacha: O‘RL)larda *tamoyil* so‘ziga quyidagicha izoh berilgan:

“TAMOYIL knijn. sklonnost, uklon; napravleniye, tendensiya.” [8, 417]. Ko‘rinadiki, *tamoyil* so‘zi ushbu lug‘atlarda aynan *tendensiya* ma’nosini anglatadi.



Lug‘atlarda keltirilgan ma’lumotlar tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, tamoyil so‘zining lug‘aviy ma’nosi prinsip so‘zidan tubdan farq qiladi. Tamoyil so‘zining o‘zagida moyillik, intilish, yo‘nalish ma’nolarini yaqqol anglatuvchi semalar (ma’nolar) mavjud. Demak tamoyil rus tilidan o‘zlashgan tendensiyaning o‘zbekcha ma’nodoshi.

Prinsip so‘zini tamoyil bilan almashtirishga bo‘lgan “o‘zboshimcha o‘jar” harakatlar rus tilidan o‘zlashganligi yaqqol sezilib turgan tendensiyaning o‘zbek nutqida yana g‘aliz, notabiiy tarzda, xususan, internet ijtimoiy tarmoqlarida o‘rinsiz faol qo‘llanishiga olib kelmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlardan olingan quyidagi matnlarda *tendensiya* va uning ma’nodoshi bo‘lgan *tamoyil* so‘zlarini tahlil qilib, qiyoslaymiz: “Qadimdan mirob degan kasb egalari bo‘lgan. Ularga suvning oxiridan uy berilgan. Chunki mirob suvni to‘g‘ri taqsim qilmasa, suv o‘zigacha yetib kelmaydi. Ya’ni, o‘sha vaqtda ham suvni tejashga qattiq qaralgan. Lekin zamon zayli bilan bu tendensiya o‘zgardi.” (xabar.uz). Ushbu matnda rus tilidan o‘zlashgan tendensiyaning tamoyil o‘rnida qo‘llanishi matnning umumiy semantikasidagi uyg‘unlikka putur yetkazgan. Chunki “qadimda mirob degan kasb egalari” yashagan davrlarda o‘zbek nutqida tendensiya so‘zi qo‘llanmagan, u vaqtlarda o‘zbeklar tendensiya so‘zi anglatadigan ma’noni tamoyil so‘zi bilan anglatgan. So‘zimizni isbotlash uchun ushbu matndagi kamchilikni tuzatamiz, ya’ni “Almashtir va solishtir usulini” qo‘llagan holda tendensiya so‘zini tamoyil so‘zi bilan almashtiramiz va ikki matnni solishtirib, tahlil qilamiz. Qiyoslang:

Qadimdan mirob degan kasb egalari bo‘lgan. Ularga suvning oxiridan uy berilgan. Chunki mirob suvni to‘g‘ri taqsim qilmasa, suv o‘zigacha yetib kelmaydi. Ya’ni, o‘sha vaqtda ham suvni tejashga qattiq qaralgan. Lekin zamon zayli bilan bu tamoyil o‘zgardi. Ana endi ushbu matndagi barcha so‘zlar semantikasi matnning umumiy ma’nosi bilan uyg‘un, mantiqiy-izchil bog‘landi.

Ayrim matnlarda esa tamoyilning qaysi ma’noda (prinsip ma’nosidami yoki tendensiya?) qo‘llanganligi noaniq bo‘lib qolmoqda:

“Li Kuan Yuni ayrim ekspertlar “ U faqat o‘z mamlakatini o‘zgartirdi”, deb aytsa, ba’zilari “Osiyoni”, uchinchi odamlar esa “Butun dunyoni o‘zgartirgan”, deydi... Binobarin u yaratgan tendensiya noyob hodisa, fenomen hisoblanib, “Singapur mo‘jizasi” deb ataladi va bashariyat rivojiga o‘ziga xos ta’sir o‘tkazgan. Umuman olganda, Li Kuan Yu bularning barchasini birlashtirgan holda Singapurning yutug‘ini ushbu tamoyillar asosida amalga oshirdi: uni yashash va ishlash uchun eng xavfsiz hududga aylantirdi.”

Gazetadan olingan ushbu matnda tamoyil prinsip ma’nosini anglatayaptimi yoki tendensiya ma’nosini noaniq bo‘lib qolgan.

Tamoyil prinsip ma’nosini aynan anglata olmasligi sababli ham O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa amaldagi qonun hujjatlarida *tamoyil* atamasi prinsip ma’nosida sira ham qo‘llanilmaydi, barcha holatlarda prinsip termini qo‘llaniladi. Masalan: “O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiga asoslanadi (11-modda).” “4-modda. Ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar. Ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:” (Ta’lim to‘g‘risidagi qonun)

Prinsip so‘zi asosida yasalgan bir qator so‘zlarni *tamoyil* so‘zi orqali ifodalab bo‘lmaydi. Jumladan, *prinsipial* qarama-qarshilik, *prinsipial* masala, *prinsipial* raqib, rahbarning *prinsipialligi* va ishchanligi; o‘z fikrida mahkam tura olmaydigan *prinsipisiz* beburd inson kabi nutqimizda ko‘p uchraydigan so‘z birikmalari va ular ishtirokidagi jumlar, gaplarni *tamoyil* so‘zi bilan ifodalab bo‘lmaydi. Masalan, qiyoslang:

“G‘azo sektoridagi qirg‘inbarot urushga ikki bir-biriga qarama-qarshi *prinsipial* yondashuv xosdir;

O‘zbekiston terma jamoasi bugun *prinsipial* raqibi Eron terma jamoasiga qarshi to‘p suradi (internet ijtimoiy tarmoqlaridan).”

Ko‘rinadiki, qayd etilgan ushbu *prinsipial*, *prinsipiallik*, *prinsipli*, *prinsipisiz* kabi so‘zlar anglatayotgan ma’no va ma’no noziklarini bugungi kunda *tamoyil* so‘zi bilan ifodalab bo‘lmaydi.

Gap o‘zbek tilida mazkur tushunchani aynan ifodalay oladigan birlik yo‘qligida emas, tilimizda *prinsip* ma’nosida bimalol qo‘llash mumkin bo‘lgan so‘zlar bir qator, masalan *tutum*, *tuturuq* (*tuturuq*), *subut*, *burd* kabilar. Bu so‘zlar prinsip o‘rnida ommaviy axborot vositalarida *tamoyil* kabi bilib-bilmay o‘jarlik bilan ko‘p qo‘llanilganda ularning har biri tamoyil so‘ziga nisbatan *prinsip* atamasining ma’nosini qulayroq va to‘laroq ifoda etgan bo‘lar edi.

Gap so‘zning mazmunan o‘z mutanosibiga ega yoki ega emasligida. Xususan, *prinsip* so‘zi o‘rnida kelib chiqishi sof o‘zbekcha bo‘lgan *tutum* so‘zini ishlatish maqsadga muvofiq : *prinsipial* – tutumi qattiq (qadim o‘zbekcha so‘z yasashdan foydalanib, *qattiqututum* qo‘shma so‘zini ham ishlatga bo‘ladi)



prinsipiiallik – qattiq tutumlik, qat’iy tutumlik, prinsipli – tutumli, prinsipsiz – tutumsiz. Qiyoslang: Ahvol juda tang bo’ldi// Qattiq tutum jang bo’ldi.

Prinsip so’zi o’zbek tiliga to’liq, tabiiy ravishda, o’zbek tili qonun-qoidalariga muvofiq o’zlashgan emas. Uning “beganaligi”ga o’zbek tili uchun xos bo’lmagan, aniqrog’i tilimiz uchun butunlay yot bo’lgan ruscha “ts” – harf (tovush)i ham “shama” qilib turibdi. “TS(s)” harfi sobiq mustabid sovet tuzumining ruslashtirish siyosati o’laroq o’zbek tiliga rus-kiril alifbosining qabul qildirilishi munosabati bilan o’tgan asrning 1940 yilida kiritilgan edi. Rus tilida qanday yozilib (prinsip), qanday talaffuz qilinsa (printsip) o’zbek-kiril alifbosida ham xuddi shunday qabul qilingan va hanuzgacha o’zbek-kiril yozuvida ham, radio-televideniye orqali uzatilayotgan eshittirish va ko’rsatuvlar nutqida ham shundayligicha qolmoqda.

Ko’rinadiki, tutum so’zi prinsip atamasining ma’nosini anglata oladi, lekin prinsip termini bu tutum ma’nosini juda ko’p hollarda ifoda eta olmaydi. Masalan, Qiyoslang, quyidagi she’riy misralarda (1-misol), ommabop (2-misol) hamda ilmiy uslubga (3-misol) xos matnlarda tutum so’zining qo’llanishini:

1) *Tutumlaring* or-nomus, ta’lim, millat, subutlar// Ko’rmasin seni ojiz millat qurti – manqurtlar (Baxtiyor Doniyorov. Intil xalqqa tilab haq)

2) Xalqimizda azaldan har qanday raqobat halollik *tutumlari* asosida bo’lishi odatga aylangan. Ming yillik tarixiga ega bo’lgan milliy sport o’yinimiz kurash hozirga qadar halollik ramzi hisoblanadi (gazetadan).

3) “Shaybonixon ko’p jihatlardan Amir Temur *tutumiga* ixlos va rioya bilan qarar, jumladan, saroyga olim va shoirlarni, san’at ahlini to’plab, ijodga targ’ib-tashviq etar edi” [6: 17].

Ushbu misollarning birortasida *tutum* so’zini *prinsip* yoki *tamoyil* so’zlari bilan almashtirib bo’lmaydi, aks holda ona tilimiz tabiatiga hamohang yozilgan matn ma’no uyg’unligiga putur yetkan bo’lar edi.

Tutum atamasi sof o’zbekcha (qadim turkiy) so’z bo’lib, u arabcha tamoyil, ruscha-baynalminal prinsipdan talaffuzi, yozilishining qulayligi, qo’llanish imkoniyatining kengligi bilan ajralib turadi. Tutumdagi -um affiksi, ushbu so’zning qadimiy ekanligidan, tilimizdagi unli tovushlarning qadimda uyg’un ohangdoshlik (singarmonizm) tutumiga to’liq bo’ysungan davrlardan bizgacha yetib kelganligidan dalolat beradi.

O’zbek adabiy tilini dunyoning eng go’zal va boy tillariri darajasiga olib chiqishda buyuk Navoiyning xizmatlari beqiyos ekanligini “go’zal va sodda, qolgusi yodda” uslubida tushuntirib, allomaning mangu munavvar va nafis g’azallarini yoddan o’qiy boshlaydi, talabalar beixtiyor zavq ila unga jo’r bo’lishadi:

*Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro’ kelmadi,
Ko’zlarimga kecha tong otguncha uyqu kelmadi.
Lahza-lahza chiqdimu, chekdim yo’lida intizor,
Keldi jon og’zim g’ayu, ul sho’xi badxo’ kelmadi...
Orazidek oydin erkonda gar etti ehtiyot
Ro’zg’orimdek ham o’lg’onda qorong’u kelmadi...*

Adabiyot fani domlasi ushbu umrboqiy go’zal g’azalni maromiga yetkazib, ijro qilib bo’lgach. Shogirdlariga murojaat qiladi.

– Qani aytting-chi, O’zbekistondan boshqa Markaziy Osiyodagi, qo’ying-chi, jahondagi yana qaysi davlatlarning ta’lim muassalari (bog’cha, maktab, oliygohlar kabilar)da Navoiyning g’azallari ommaviy o’qiladi? O’qituvchisi, domlasi boshlab bersa, shogirdlari unga jo’r bo’lishadi? Javob: Tanho O’zbekistonda. Nima uchun shunday? Javob: Chunki Buyuk Navoiy bobomiz o’zbek millatiga mansub bo’lib, o’zbek adabiy tilida mukammal asarlar bitganlar va millatimizni qaynoq mehr hamda chuqur ehtirom ila tilga olganlar:

*Shohu toji xil’atim, men tomosho qilg’ali,
O’zbekim boshida qalpoq, egnida shirdog’i, bas!*

Bu misralarda bobokalonimiz aytayaptilarki: Shohning qimmatbaho tojiyu, serhasham libosi (xil’ati)ni tomosha qilib men zavq olaman, lekin men uchun o’zbekimning oddiy do’ppisi va oq chakmoni bo’lsa, bas! (shohning hashamatli kiyimi va tojidan afzal).

Xalqimiz ham o’z tili – o’zbek adabiy tilining shakllanib yuksak cho’qqilarga ko’tarilishiga beqiyos ulkan ulush qo’shgan millatdoshinini e’zozlaydi, ardoqlaydi, ko’klarga ko’taradi. Dars xonadagi ekranda ushbu g’azalning 1-,2-,3- baytlari gavdalanadi. Domla *Oddiy sodda va ravon/ Tushunarli va oson* usulini qo’llab g’azalni maromiga keltirib, ifodali o’qiydi va talabalarining faollashgan e’tiborini *Mantiqiy izchil ixcham/ Qiziqarli ta’sirchan* tarzda asarning mazmun-mohiyatiga qaratadi:



*Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro ‘ kelmadi,
Ko ‘zlarimga kecha tong otguncha uyqu kelmadi.
Lahza-lahza chiqdimu, chekdim yo ‘lida intizor,
Keldi jon og ‘zimg ‘ayu, ul sho ‘xi badxo ‘ kelmadi...
Orazidek oydin erkonda gar etti ehtiyot
Ro ‘zg ‘orimdek ham o ‘lg ‘onda qorong ‘u kelmadi.*

Birinchi va ikkinchi baytlarning ma’nosi talabalar uchun to’liq tushunarli. Uchinchi baytdagi so’zlarning aksariyati, har bir so’zni alohida olib qarasak, talabalar uchun butunlay notanish emas, lekin ushbu ushbu nazmiy matnning umumiy yaxlit ma’nosi talabalar uchun jumboq. Chunki Navoiy ushbu asar qahramonining hissiyotlarini va holatini o’ta noziklik bilan haqqoniy ifodalashda lisoniy tejamlilik tutumini mantiqiy izchil va ixcham tarzda yuksak mahorat bilan qo’llagan.

*Orazidek oydin erkonda gar etti ehtiyot
Ro ‘zg ‘orimdek ham o ‘lg ‘onda qorong ‘u kelmadi.*

Ushbu baytdagi so’zlar talabalarga u qadar “begona” emas. Oraz – yuz, chehra so’zlarining ma’nodoshi ekanligini, Navoiy davri o’zbek adabiy tilida *bo’l* so’zi ma’nosi *o’l* [o’l] shaklida ham anglatilganligini, ushbu so’zdan hosil bo’lgan *o’lg ‘onda* so’zi hozirgi *bo’lganda* so’zining ma’nosini bildirishi talabalar uchun maktab davridan ma’lum. Jumladan, Hazrat Navoiyning ushbu purma’no va umr boqiy misrasi “*Har tuning qadr o ‘lubon, har kuning o ‘lsun Navro ‘z*” misrasi har yili yurtimizga bahor va yangilanish fasli kirib kelishi bilanoq Navro’z bayram tadbirlarining bosh g’oyasi sifatida barcha tashkilotlar va ta’lim musassalarining peshyozuvlarini bezab, go’zal o’zbek tilimizda jonlanadi.

Demak, ushbu baytni talabalarga oddiy, sodda, chiroyli qilib tushuntirib berish mumkin:

“*Orazidek oydin erkonda*” – degani “(yorning) yuzidek oydin, yorug’ kunda” ma’nosini, “gar etti ehtiyot” – “o’zini ehtiyot qilgan bo’lsa” ma’nosini bildirib, ushbu jumlarlar birgalikda (*Orazidek oydin erkonda gar etti ehtiyot*): “agar (yor) go’zal yuzidek oydin, yorug’ kunda o’zini (boshqalarning ko’ziga tashlanishidan uyalib) ehtiyot qilib kelmagan bo’lsa,” ma’nosini anglatadi.

Endi keyingi misraga e’tiborimizni qaratamiz: *Ro ‘zg ‘orimdek ham o ‘lg ‘onda qorong ‘u kelmadi*. Ma’nosi: “Tun ro’zg’orimdek (turmushimdek) qorong’i bo’lganida ham kelmadi”. (Iztirobda qolgan oshiqning ko’ziga keng va oydin dunyo tor va qorong’i bo’lib ko’rinyapti).

Demak, ushbu *Orazidek oydin erkonda gar etti ehtiyot/ Ro ‘zg ‘orimdek ham o ‘lg ‘onda qorong ‘u kelmadi* baaytning umumiy ma’nosi:

“Agar (sevgilim) go’zal yuzidek oydin, yorug’ kunda o’zini (boshqalarning ko’ziga tashlanishidan uyalib) ehtiyot qilib kelmagan bo’lsa, (unda nega) Tun (kecha) ro’zg’orimdek (turmushimdek) qorong’i bo’lganida ham kelmadi”. Ushbu qariyb yarim abzasdan iborat qo’shma gapni Shoirilar sultonoi Hazrat Navoiy yuksak mahorat bilan go’zal lisoniy tutum va badiiy uslubda ham mazmunan, ham shaklan benazir nafis va quyma ixcham ifodalagan:

“*Orazidek oydin erkonda gar etti ehtiyot/Ro ‘zg ‘orimdek ham o ‘lg ‘onda qorong ‘u kelmadi.*”

Muxtasar qilib aytganda, zamonaviy dars o’tishning tutum (prinsip) va usullarini oddiy, sodda, aniq, lo’nda bayon etish maqsadga muvofiq. Bayon etilgan fikr-mulohazalarni isbotlovchi faktlar, dalillar misollar yetarli va shubhaga o’rin qoldirmaydigan darajada shaffof bo’lmog’i lozim. Tegishli mavzular talabalarga yaxshi tanish va manzur bo’lgan hayotiy nutqiy vaziyatlar orqali tushuntirilsa, tinglovchilarning darsga bo’lgan qiziqishi yanada ortadi, olgan bilimlari asosida amaliy ko’nikma va malaralar shakllanib, bir umrga asqotadi [6: 111].

Adabiyotlar ro’yxati

1. Данияров Б. Х. Ўзбек тили лексик синонимларининг лисоний ва нуткий муносабати, лексикографик тадқиқи. Монография.- Тошкент: “Sano-Standart” нашриёти, 2019.- 200 б.
2. Данияров Б.Х. Комплексный анализ семантической структуры и функционирования лексических синонимов. Монография / Б. Х. Данияров. – Ташкент: Издательство Bookmany print, 2022. – 156 с. – С. 120-121.
3. Данияров Б.Х. Инновацион технологиялар асосида таълим жараёнлари сифат ва самарадорлигини ошириш. Монография. -“Sano-Standart” нашриёти, 2014.- 160 б. - Б. 95
4. Данияров Б.Х. Жозибали дарс – ҳам қарз, ҳам фарз. // Тошкент иқтисодиёт ва педагогика институти илмий-методик журналі, №1 (2024 йил, сентябрь): – Т.: ТИПИ,2024, Б. 10.
5. Данияров Б.Х. Академик ёзув дарсларида замонавий смартфонлардан самарали фойдаланиш.- Компьютер лингвистикасининг замонавий технологиялари. Вазирлик миқёсидаги илмий-назарий



анжумани илмий мақолалари ва тезислари тўплами (2023-йил 14 апрель). –Т.: ЎзМУ, 2023. – 135-бет.

6. Данияров Б.Х. Dars sifati va jozibadorligini oshirishga zamonaviy yondashuvlar UDK 37.02Ilm-fan, ta’lim-tarbiya, innovatsiya: zamonaviy vazifalari va istiqbollari” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman (2024-yil 3-may)/ O‘zR OTFIV, Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti, O‘zR FA Yosh olimlar kengashi. – Toshkent: TIPI, 2024. -301 b. Б. 111.

7. Данияров Б.Х. Исследование лексической синонимии, возникшей на базе заимствований в современном узбекском языке. Автореферат диссертации... канд. филол. н. - Москва: Институт языкознания РАН, 1993.

8. Ўзбекча-русча луғат.- С.Ф.Акобиров ва Г. Н. Михайлов тахрири остида. – Тошкент: Ўзбек совет энциклопедияси бош редакцияси, 1988, Б.417.

SPEECH CULTURE AND MODERN YOUTH VOCABULARY

Alpisbayeva Möldir Rashid qizi

Jumabayeva Gulshoda Umidjon qizi

Students, Chirchik state pedagogical university

jumabaevagulshada@gmail.com

Scientific adviser: **Ochilova Xursanoy Maxmud qizi**

Teacher, Chirchik state pedagogical university

ochilovaxursanoy26@gmail.com

Abstract. This article analyzes the interrelation between speech culture and the vocabulary of modern youth. It examines the communication style of today’s young people, innovations in their use of linguistic units, and the influence of social networks on vocabulary. The emergence of new words, abbreviations, and English borrowings in youth speech, as well as their impact on speech culture, are discussed. The importance of adhering to speech culture norms and ways to promote them among young people are also highlighted. The study results show that under the influence of modern technologies and globalization, youth vocabulary is rapidly changing, which requires new approaches to shaping and maintaining a high level of speech culture.

Keywords: speech culture, youth vocabulary, modern language, communication, social networks, globalization.

КУЛЬТУРА РЕЧИ И ЛЕКСИКА СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЕЖИ

Alpisbayeva Möldir Rashid qizi

Jumabayeva Gulshoda Umidjon qizi

Студенты, Чирчикский государственный педагогический университет

jumabaevagulshada@gmail.com

Научный руководитель: **Ochilova Xursanoy Maxmud qizi**

Учительница, Чирчикский государственный педагогический университет

ochilovaxursanoy26@gmail.com

Аннотация. В данной статье анализируется взаимосвязь между культурой речи и лексикой современной молодежи. Рассматриваются особенности коммуникативного стиля молодых людей, новшества в их использовании языковых единиц, а также влияние социальных сетей на лексику. Обсуждаются появление новых слов, сокращений и англицизмов в молодежной речи и их воздействие на культуру речи. Особое внимание уделяется важности соблюдения норм речевой культуры и путям её формирования среди молодежи. Результаты исследования показывают, что под воздействием современных технологий и глобализации лексика молодежи быстро изменяется, что требует новых подходов к формированию и поддержанию высокого уровня культуры речи.

Ключевые слова: культура речи, лексика молодежи, современный язык, общение, социальные сети, глобализация.

NUTQ MADANIYATI VA ZAMONAVIY YOSHLAR LEKSIKASI